



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 15-oktabr

537-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktabrdagi 631-son qarori ijrosi haqida” 469-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktabrdagi 631-son qarori ijrosi haqida” 469-6-0-Q/24-sonli qarorida belgilangan vazifalarni bajarilishini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi hamda uning hududiy komissiyalari faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktabrdagi 631-son qarori ijrosi haqida” 469-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 631-son qarori bilan:

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha davlat komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha hududiy komissiya to‘g‘risidagi namunaviy nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Quyidagilar:

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman hududiy komissiya to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo‘yicha tuman komissiyasining tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 15-oktabrdagi
537-6-81-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish
bo'yicha tuman hududiy komissiya to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha hududiy komissiyaning (keyingi o'rinlarda — hududiy komissiya) maqomi, vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlarini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Hududiy komissiya Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha davlat komissiyasining (keyingi o'rinlarda — Davlat komissiyasi) tumanda faoliyatini tashkil etuvchi va ishini ta'minlovchi hududiy idoralararo kollegial organ hisoblanadi.

3. Hududiy komissiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Davlat komissiyasi qarorlari, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Hududiy komissiya giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha tuman komissiyasi (keyingi o'rinlarda — tuman komissiyasi), hududiy davlat organlari va tashkilotlarining sohaga oid faoliyatini o'rganib, tahlil qilib boradi.

5. Hududiy komissiya o'z faoliyatida viloyat komissiyasi oldida hisobdordir.

6. Hududiy komissiya quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega:
hududiy komissiyaning namunaviy tarkibi asosida hududiy komissiya tarkibini shakllantirish, hududda giyohvandlik vositalarining suiiste'moli va noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish;

sektorlar kesimida giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyatni chuqur o'rganib borish va natijasidan kelib chiqib, uni sog'lomlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi (keyingi o'rinlarda — Milliy markaz) tomonidan kiritilgan taqdimnomalar bo'yicha choralar ko'rish;

yillik ish rejalar, hududiy komissiya qarorlari va bayonlarida belgilangan topshiriqlar ijrosidan kelib chiqib, hududiy davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish yoki intizomiy chora qo'llash masalalarini ko'rib chiqish.

7. Hududiy komissiyaning o'z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari hududiy davlat organlari va tashkilotlari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

8. Hududiy komissiya o'ziga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda hududiy davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

2-bob. Hududiy komissiyaning vazifa va funksiyalari

9. Hududiy komissiya:

giyohvandlik vositalari bilan bog'liq vaziyatning asosiy omillari hamda tendensiyalarini aniqlash va prognoz qilish orqali, giyohvandlik va narkojinoyatlarning oldini olishga qaratilgan yillik va qisqa muddatli ish rejalarini ishlab chiqadi va ijrosini nazorat qilib boradi;

hududdagi narkovaziyatni kompleks baholash va natijasi asosida vaziyatni sogʻlomlashtirish boʻyicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

aholi orasida giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi boʻyicha sektorlar kesimida samarali chora-tadbirlarni belgilaydi;

giyohvandlik vositalari bilan bogʻliq vaziyatni sektor kesimida ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jihatdan chuqur oʻrganadi hamda natijasi boʻyicha tegishli tahliliy materiallar, taklif va tavsiyalar tayyorlaydi hamda viloyat komissiyasiga kiritadi;

hududdagi davlat organlari va tashkilotlarining giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi va suiisteʼmoliga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtiradi;

hududdagi davlat organlari va tashkilotlari masʼul rahbarlarining ish rejalarini ijrosi yuzasidan hisobotlarini eshitish va tanqidiy muhokama qilib boradi;

aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda «giyohvandlikka qarshi immunitet»ni, oʻquvchi va talabalar orasida psixotrop moddalarni isteʼmol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish choralari belgilaydi;

mahalla, qishloq, ovul, chegara hududlar va taʼlim muassasalarida giyohvandlik vositalarining suiisteʼmoli va noqonuniy aylanishining oldini olish, zaharvandlikning barvaqt aniqlash boʻyicha tizimli choralar koʻradi;

giyohvandlik vositalarining nazorat qilish samaradorligini oshirish yoʻnalishida milliy va xalqaro konferensiyalar hamda simpoziumlarni oʻtkazishga koʻmaklashadi;

hududdagi narkologiya muassasalari va huquqni muhofaza qilish organlarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga koʻmaklashadi.

3-bob. Hududiy komissiyaning huquq va majburiyatlari

10. Hududiy komissiya oʻziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududdagi davlat organlari va tashkilotlaridan narkovaziyatning holati, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga tegishli axborot, tahliliy va statistika maʼlumotlarini belgilangan tartibda bepul soʻrab olish;

giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishda asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida hududlarda oʻrganishlarni tashkil etish;

giyohvandlikning holati, giyohvandlik vositalarining qonuniy va noqonuniy muomalasiga oid faoliyatni oʻrganishda mutaxassis jalb etish.

11. Hududiy komissiya:

oʻziga yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli hamda oʻz vaqtida bajarishi;

Viloyat komissiyasi tomonidan giyohvandlik vositalari bilan bogʻliq vaziyat yuzasidan beriladigan topshiriqlar ijrosini taʼminlashi;

hududda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat komissiyasiga hisobot kiritib borishi;

hududdagi narkovaziyatni sogʻlomlashtirish boʻyicha choralarni samarali tashkil etish yuzasidan mahalliy byudjet va byudjetdan tashqari mablagʻlar jalb etilishini taʼminlashi lozim.

4-bob. Hududiy komissiyaning faoliyatini tashkil etish

12. Hududiy komissiyaning namunaviy tarkibi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

13. Hududiy komissiyaga tegishli tuman hokimi raislik qiladi. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari tegishli hududiy komissiya raisining o'rinbosari hisoblanadi.

Tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha bosh mutaxassisi hududiy komissiya kotibi vazifasini bajaradi.

14. Hududiy komissiya o'z faoliyatini giyohvandlikning holati, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga oid masalalarning muhokamasiga bag'ishlangan majlislarni tizimli asosda o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

15. Hududiy komissiya majlislari tegishli hududdagi davlat organlari va tashkilotlari mas'ul rahbarlari taklif etilgan holda zaruratga ko'ra, biroq har chorakda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

16. Majlisni hududiy komissiya raisi, u bo'lmaganda hududiy komissiya raisining o'rinbosari o'tkazadi.

17. Hududiy komissiyaning qarorlari hududiy komissiyaning majlisida ishtirok etadigan a'zolarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

18. Hududiy komissiyaning qarorlari uning majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Hududiy komissiya majlisi bayonnomasiga uning barcha a'zolari tomonidan viza qo'yiladi, mas'ul kotib tomonidan imzolanadi, hududiy komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 15-oktabrdagi
537-6-81-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha
tuman komissiyasining**

TARKIBI

1	A.Mansurov	Tuman hokimi, <i>komissiya raisi</i>
2	J.Raximov	Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
3	Y.Mamitaliyeva	Tuman hokimining o'rinbosari– oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i
4	B.Tursunov	Davlat xavfsizlik xizmati tuman bo'limi boshlig'i
5	U.Akbarov	Tuman prokurori
6	E.Abdullayev	Tuman Jinoyat ishlari bo'yicha sudi raisi
7	D.Karimov	Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i
8	A.Qodirov	Tuman Adliya bo'limi boshlig'i
9	Z.Juraboyev	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i
10	A.Xakimov	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i
11	O.Qo'ldoshev	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
12	Z.Axmadjonov	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i
13	R.Xoliqova	Tuman Madaniyat bo'limi boshlig'i
14	O.Xo'jayev	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
15	O.Qodirov	O'zbekiston Mahallalari uyushmasining tuman bo'limi boshlig'i
16	M.Mamasobirov	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i
17	D.Umarov	Tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha bosh mutaxassisi, <i>komissiya kotibi</i>

Izoh: Komissiya a'zolarining xizmat vazifasi o'zgargan taqdirda, ushbu vazifaga tayinlangan shaxs komissiya a'zosi hisoblanadi.

